INGLIZ TILI VA O‘ZBEK TILI O‘RTASIDAGI LINGVISTIK FARQLAR VA O'XSHASHLIKLAR

Burxonidinova Odinaxon

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20041970

Annotatsiya : Bu maqolada ingliz tili va o'zbek tili o'rtasidagi linguistik farqlar va o’xshashliklar, ingliz tilini o'rganishda o'zeklarda paydo bo'ladigan qiyinchiliklar va ikki tilni taqqoslash orqali ingliz tilini o'rganish osonroq bo'lishi haqida batafsil so'z boradi. Maqolaning maqsadi ingliz tili va o'zbek tili o'rtasidagi asosiy linguistik farqlarni tahlil qilish va til o'rganuvchilarga nafaqat ingliz tili, balki boshqa chet tillarini o'rganishda o'zbek tilini bilish va chet tillarini ona tilimizga taqqoslash orqali o'rganishning ahamiyatini tushuntirishdan iborat.

Kalit so'zlar : Til, turkiy tillar oilasi, german tillar oilasi, linguistik farq, gap tuzilishi, zamon, artikl, predloglar, shaxs olmoshi.

Abstract : This article examines the main linguistic differences and some same aspects between English and Uzbek and the challenges Uzbek learners face when learning English. This article is aimed at demonstrating the importance of learning English through comparison with the native language, showing how such an approach can make learning English and other foreign languages easier and more effective.

Keywords : Language, the Turkic language family, the Germanic language family, linguistic difference, sentence structure, tense, article, prepositions, personal pronouns.

Аннотация : В статье рассматриваются лингвистические различия между английским и узбекским языками, трудности, с которыми сталкиваются узбекские учащиеся при изучении английского, а также то, как сравнение двух языков может облегчить процесс изучения. Цель статьи — проанализировать ключевые языковые различия и показать важность использования родного языка при изучении английского и других иностранных языков.

Ключевые слова : Язык, Тюркская языковая семья, Германская языковая семья, Лингвистическое различие, Структура предложения, Время

(грамматическое), Артикль, Предлоги, Личные местоимения

Kirish.

Til jamiyatda muhim o’zin tutadi. U insonlar o’rtasidagi aloqa vositasi hisoblanadi. Insonlarni bir-biriga bog’laydigan, ularni o’zaro yaqinlashtiradigan va muloqot vositasi — bu til. Bugungi kunda ko’plab insonlar chet tillarini o’rganmoqda. Bu yo’lda o’z ona tilimiz bilan boshqa chet tillarini linguistik jihatdan taqqoslash yamgi tilni tezroq va mukammalroq o’rganishda qo’l keladi. Ingliz tilini bilish asta-sekin dunyo talabiga aylanib bormoqda. Demak, o’zbek tili va ingliz tili o’ztasidagi linguistik farqlar tahlil qilinsa, ingliz tili yanada yaxshiroq tushuniladi. Bu til o’rganoyatganlar uchun foydali hisoblanadi.

Til oilasi va kelib chiqishi.

O’zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub, ingliz tili esa german tillar oilasiga kiradi. Bu ikki tilning grammatik jihatdan ancha farqlanishiga sabab bo’ladi.

Quyida bir nechta asosiy farqlarni ko’rib chiqamiz.

Gap tuzilishi.

Gap tuzilishi ya’ni gapda so’zlarning tartibiga ko’ra, ingliz tilida ega+kesim+to’ldiruvchi(subject+verb+object) bo’lsa, o’zbek tilida ega+to’ldiruvchi+kesim(subject+object+verb) tarzida gap tuziladi. Oddiy qilib aytganda, inglizlar men uyga bordim emas, men bordim uyga(I went home) deb gapirishadi. Ammo bu o’zbek tiliga men uyga bordim deb, ya’ni orqadan oldinga qarab tarjima qilinadi. O’zbek tilida esa men uyga bordim tarzida gap yasaladi. **Zamon.**

O’zbek tilida o’tgan zamon, hozirgi va kelasi zamonlar bor, nisbatan sodda va tushunishga oson. Ammo, ingliz tilida jami 16ta zamon bor. Shu sababli ingliz tilini o’rganoyatgan o’zbeklar zamonlarni farqlash va gap tuzishda biroz qiynalishi mumkin. Aslida, o’zbek tilida ham bu zamonlarning ko’pi mavjud, lekin asosiysi 3ta. Misol uchun, “Men hozirgina keldim” gapi o’tgan zamonda, lekin endigina tugallangan ish-harakat bo’lganligi uchun bu gapni ingliz tilidagi present perfect (I have just come) ga qiyoslash mumkin. O'zbek tilida zamonlar faqat vaqtni ifodalaydi. "Ingliz tilida zamon tushunchasi faqat vaqtni emas, balki harakatning davomiyligi, tugallanganligi va natijasini ham ifodalaydi."- deb yozadi Randolph Quirk o'zining "Comprehensive Grammar of the English Language" asarida.[1] Demak, asosiy mantiq zamonlarning yasalishidagi farqda emas, balki zamaonlarning mohiyati va vazifasida ham ekan. Nafaqat O'zbekistondagi, balki inglizzabon bo'lmagan mamlakatlarda ham ingliz tilidagi bu 16ta zamonning hammasini ham bir-biridan farqlayolmaydi, ammo bu zamonlar o'rtasida nozik va aniq tafovutlar bor. "Ingliz tili zamonlar tizimi shaklan murakkab bo‘lsa-da, ma’no jihatidan juda aniq farqlarga ega."- deb yozadi Sidney Greenbaum o'zining "An Introduction to English Grammar" asarida.[2]

Artikllar(a,an,the).

O'zbek tilida artikllar yo'q, narsa yoki shaxsning bitta ekanligini ko'rsatuvchi aynan qo'shimcha yoki so'zlar mavjud emas. Olma so'zi oldidan biror so'z yoki qo'shimcha ishlatmasdan ham uning bitta ekanligi tushunilaveradi. Ingliz tilida esa olma(apple) so'zi oldidan uning ha qanday, yoki bitta ekanligini ifodalash uchun "an" artikli foydalanishi shart. Misol uchun, a banana, an apple, the moon. Bu ham o'zbeklar uchun noqulaylik tug'diradi. hayotiy misol keltiradigan bo'lsak, mening o'quvchilarim ingliz tilida artikllarni qachon, qayerda foydalinish kerakligini biladilar, ammo doimo so'zlar oldidan artikl qo'yishni unutadilar.

Chunki bu grammmatik xususiyat ona tilimizga xos emas.

Predloglar(prepositions vs suffixes).

Ingliz tilida to, for, at, on kabi predloglar mavjud. Ularsiz gapning ma'nosi to'liq anglashilmaydi. Masalan, I am waiting on the first floor gapida "on" predlogi tushirib qoldirilsa, ma'no g'aliz chiqadi, ya'ni tarjimada Men birinchi qavatda kutayapman emas, Men birinchi qavatni kutayapman(I am waiting the first floor) tarzida ifodalanadi. Demak, shu va shu kabi predloglarni unutib qoldirish yoki noto'g'ri qo'llash ingliz tilida to'g'ri muloqot qilishga to'sqinlik qilishi mumkin. O'zbek tilida esa, bunday predloglar o'rniga kelishik qo'shimchalari so'z oxiriga qo'shiladi yoki ko'makchi so'zlardan foydalanadi. "O‘zbek tilida munosabat va bog‘lanishlar asosan qo‘shimchalar orqali ifodalanadi, alohida old qo‘shimchalar tizimi mavjud emas."[3] Misol

uchun, "Men maktabga do'stim bilan boraman". Bu gapda -ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi yo'nalganlik ma'nosida kelib, maktab so'ziga qo'shilib, ingliz tilidagi "to" old qo'shimchasiga teng bo'ladi. "do'stim bilan" jumlasidagi "bilan" ko'makchisi birgalik ma'nosini ifodalab, "with" qo'shimchasiga teng.(I go to school with my friend)

Bu linguistik xususiyatlar ham ingliz tilini o'rganoyatganda muammo tug'dirishi mumkin. Chunki shunday hollar borki, unda bir xil old qo'shimcha ikki o'rinda ikki xil ma'noda qo'llanadi. Masalan, "I go to school to study" gapidagi ikkita "to" ikki xil ma'noni ifodalaydi: birinchisi- yo'nalish, ikkinchisi- sabab-maqsad. Ammo o'zbek tili bilan solishtirgan holda tahlil qilinsa, bu masala oydinlashadi, negaki o'zbek tilda ham "Men maktabga o'qishga bordim",- deyiladi. Bu yerda ham "-ga" kelishigi ikki xil ma'noni kasb etmoqda.

Shaxs olmoshlari.

O'zbek tilida olmoshlar jins jihatidan farqlanmaydi, ayol va erkak kishi uchun bir xil olmosh(u) foydalanadi. U keldi gapida u olmoshi erkak kishini ham ayol kishini ham ifodalab kelishi mumkin. Lekin ingliz tilida he/she tarzida farqalanadi. "Ingliz tilida jins kategoriyasi asosan shaxs olmoshlarida saqlanib qolgan."[4] Olmoshlarning bu jihatdan farqlanishi shaxsga aniqlik beradi. Mening bir o'quvchimdan "U maktabdan keldi" kabi u olmoshi qatnashgan gapni ingliz tiliga tarjma qilishini so'rasam, doim " U qiz bolami, o'g'il bolami",- deb so'raydi. Ehtimol, o'zbek tilida ham erkak va ayol uchun alohida ikkita olmosh mavjud bo'lganda, bu savolga xojat qolmas edi. Mening fikrimcha, garchi bu til o'rganuvchilarga biroz chalkashlik tug'dirsa-da, bu o'zbek tilining ingliz tilidan ustun jihatlaridan biri hisoblanadi.

O'xshashliklar Ko'plik shakli

Har ikkala tilda ham otlarga qo'shimcha qo'shish orqali ko'plik xosil qilinadi. Ingliz tilida book-books terzda bo'lsa, o'zbek tilida kitob-kitoblar tarzida ko'plik shakli yasaladi.

Egalik shakllari

Ikkala tilda ham egalik(possession) egalikni bildiruvchi shakllar mavjud va bu shakllar my book-mening kitobim tarzida narsa oldidan qo'shiladi. Yoki, Malikaning kitobi va Malika's book tarzida hosil qilinadi. Ikki tilda ham egalik grammatic vositalar yordamida ifodalanadi.

Bundan tashqari, Ingliz tili ham, O'zbek tili ham boshqa tillardan ko'p so'zlar qa'bul qilgan tillar doirasiga kiradi. Shu sababli, bu ikki tilda o'xshash yoki bir xil shakldagi so'zlar ko'p foydalaniladi. Misol uchun, telefon-telephone, universitetuniversity, radio-radio, internet-internet kabi so’zlar ingliz va o’zbek tillarida deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Global leksika bunga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Hozirgi texnologiyalar asrida davlatimizning ham dunyo va rivojlangangan davlatlar bilan hamnafas rivojlanishi uchun tilimizga bunday dunyo bo’yicha standart qa’bul qilingan so’zlarning kirib kelishi ijobiy rol o’ynaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillari grammatik va strukturaviy jihatdan sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu farqlarni chuqur o‘rganish til o‘rganuvchilarga xatolarni kamaytirish va tilni samarali egallashga yordam beradi. Ingliz tilini o’rganish ko’plab dunyo xalqlari bilan muloqot qilish uchun zamin yaratsa, o’zbek tilini mukammal bilish tilimizning eng qadimgi ildizlarini va o’zbek tilining turkiy tillar oilasidagi beqiyos o’rnini anglab yetishda yordam

beradi. Ikki til ham qadimdan ko’plab buyuk tarixga boy va xalqlarning madaniyatini saqlab qoladigan va tarix va madiniyatni keyingi avlodlarga yetkazadigan muhim vositadir.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Randolph Quirk "Comprehensive Grammar of the English Language" - 1985yil, Longman(London)

2. Sidney Greenbaum "An Introduction to English Grammar" - 1991-yil, Longman

3. A. G‘ulomov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Morfologiya, Sintaksis" - 2009-yil, Fan va texnologiya(Toshkent)

4. Huddleston & Pullum "The Cambridge Grammar of the English Language" - 2002-yil, Cambridge University Press